

## MULOQOT SHART-SHAROITLARINING JINOYAT LEKSIKASIDA AKS ETISHI

**Nuritdinova R.N.**

*Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** *Muloqotga kirishuvchi adresant va adresatning bir-biriga bo'lgan munosabati (ijtimoiy mavqeyi, yoshi, jinsi, kasbi kabilarni inobatga olib o'ziga xos muloqot shaklini hosil qilish) nazarda tutiladi. Turli vaziyatlarda so'zlovchi atrofdagi insonlar bilan munosabat o'rnatishda lingvistik vositalarni o'ziga xos tarzda qo'llashi, nutqiy etiket qoidalari rioya qilishi lozim bo'ladi.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *nutqiy odat, lingvistik vositalar, siyosiy-iqtisodiy omillar, ijtimoiy omil, sotsial munosabat, nutqiy odat.*

**Аннотация.** *Речь идет об отношении адресанта и адресата друг к другу (учет социального статуса, возраста, пола, профессии и т. д. для создания уникальной формы общения). В разных ситуациях говорящему приходится по-своему использовать языковые средства и соблюдать правила речевого этикета при установлении отношений с окружающими его людьми.*

**Ключевые слова и фразы:** *речевой навык, лингвистические средства, политико-экономические факторы, социальный фактор, социальная установка, речевой навык.*

**Abstract.** *This is about the attitude of the addressee and the addressee to each other (taking into account social status, age, gender, profession, etc. to create a unique form of communication). In different situations, the speaker has to use language tools in his own way and follow the rules of speech etiquette when establishing relationships with people around him.*

**Key words and phrases:** *speech skill, linguistic tools, political and economic factors, social factor, social attitude, speech skill.*

Odatda, o'zbek oilalarida o'zidan kattalarga nisbatan doimo II shaxs birlikdagi "sen" olmoshi o'rnida II shaxs ko'plikdagi "siz" olmoshi qo'llaniladi, (suhbatdoshga hurmat, ehtirom kabilar ko'rsatiladi). Rus oilalarida esa barcha oila a'zolarining bir-birlariga II shaxs birlikdagi "sen" (ТЫ) orqali murojaat qilishlarini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, oiladan tashqarida, jamiyatda esa yoshi va mansabi jihatidan o'zidan kattalarga doimo II shaxs ko'plikdagi "siz" (ВЫ) olmoshi qo'llaniladi. Tilshunos F.Panning aniqlashicha, "Vengriyada ziyolilar o'zaro muloqotda bir-biri bilan tanish yoki notanish bo'lishidan qat'i nazar, yoshlarida tafovut bo'lishiga qaramay, bir-biriga "sen" deya, oddiy xalq esa "siz" deb murojaat etishadi". "Meksika qishloqlarida "siz" olmoshi nafaqat rasmiy doirada, shu bilan birga, mushuk hamda itga nisbatan ham qo'llaniladi. Boshqa hayvonlarga nisbatan esa "sen" olmoshidan foydalaniladi. Ya'ni bu yerda mushuk hamda itga alohida e'tibor bilan oila a'zosi sifatida qarash mavjud". Bu esa nutqiy odatlar milliy

ruhga ega bo'lishini ko'rsatadi [1,16]. Jumladan, A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ellikboshi Qobil boboga nisbatan buyruq-istak mayli qo'shimchasi II shaxs birlik o'rinda III shaxs birlik qo'shimchasini majhul nisbatda qo'llab "yig'lanmasin" deya murojaat etadi. Bu bilan ellikboshi o'zining yuqori tabaqa vakili ekanligi, bundan tashqari, nutqiga rasmiy uslub ottenkasini yuklashni maqsad qiladi. Muloqotda sotsial munosabat ifodalanishi nafaqat mansab, yosh, kasb, ta'lim darajasi, balki millat jihatidan ham farqlanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Qolaversa: "Suhbatdoshning kimligiga qarab muloqot mazmuni, ifodasi o'zgarishi insonda 3-4 yoshdanoq shakllanishi, yosh bolalar kimga erkalanish, buyruq ohangida murojaat etish, injiqliklar qilishni bilishi fanda o'z isbotini topgan". Nutqiy odatlar millat, mansab, yosh, jins kabi bir qator omillarni inobatga olgan holda shakllanadi. Bunda muloqot shart-sharoiti inson istak-xohishidan tashqarida vujudga kelishi, keng ma'noda millat urf-odati, mentaliteti, qadriyatleri, til xususiyati bilan bog'lansa, tor ma'noda pragmatika bilan ham bog'liq bo'ladi:

*Onasi ikki, uch marta kelganda ham yaqinlashmadi. Buvisi yo'qlab kelganda "ayting endi ko'rinmasin, o'ldiraman" dedi. Buvisi o'n yashar boladan bunday gap kutmagan edi.*  
(Alvido, bolalik. 26-bet)

Odatda, har qanday bolaning onasiga mehr berishi tabiiy hodisa hisoblanadi. Biroq mazkur personaj bolalar uyiga tashlab ketilganligi sababli uning ruhiyatida turli o'zgarishlar sodir bo'lgan. O'n yildan so'ng "paydo bo'lgan" onaga odatdagi nutqiy odat qoidalariga rioya qilmay "o'ldiraman" deya tahdid bilan murojaat qilgan. Chunki mazkur parcha orqali bayon qilingan axborot tarkibida illokutiv, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi uchun ham anglashiladigan akt mavjud bo'lib, matn izohiga pragmatik jihatdan yondashish talab etiladi[2,24].

*Til va siyosiy-iqtisodiy omillar.* Ma'lum bir davlatda turli xil ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar tufayli ana shu davlat tilida ham o'zgarishlar yuz beradi: "XVII asrdagi Peyotr I rus inqilobi natijasida tilga ko'plab yangi atamalar kirib kelishi neologizmlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi". Bundan tashqari, turli siyosiy va mafkuraviy omillar tufayli bir davlatga boshqa davlatdan qochoqlar qabul qilinishi, insonlarning iqtisodiy sabablar tufayli muhojir tarzida mehnat qilish uchun boshqa yurtlarga ketishi tufayli diglossiya hodisalari yuz beradi. Qolaversa, tarixdan ma'lumki, bir mamlakat boshqasini mustamlakaga aylantirgandan so'ng "til siyosati"ni olib boradi. Masalan, Nigeriya davlatini oladigan bo'lsak, u yerda ikki yuzdan ortiq til mavjudligi aynan yuqoridagi sabablar oqibati natijasidir. Hozirgi kunda globallashuvni tilga ta'sir etuvchi eng kuchli omil sifatida ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir birliklari tarkibiga kiritishimiz mumkin bo'ladi [3,6].

Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar tilga ta'sir etuvchi o'zgaruvchan xususiyatga egadir. Tilga ta'sir etuvchi doimiy o'zgarimas omillar ham mavjud bo'lib, ularga "adresant (so'zlovchi) va adresat (tinglovchi)ning kasbi, millati, yoshi, jinsi kabi bir qator omillar" kiradi.

*Jins.* Ma'lumki, ayol va erkak nutqi biologik, ruhiy va ijtimoiy jihatdan farqlanadi: "Amerikalik olimlar tadqiqotiga ko'ra, ikki jins nutqining farqlanishi bolalikdan oq boshlanar ekan".

XX asr so'ngiga kelib fan olamida gender lingvistikasi yo'nalishi paydo bo'ldi. O'zbek tilshunosligida ham oxirgi o'n yillikda nutqdagi jinsiy farqlanishlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora o'sib bormoqda[4,17]. Hozirgi kunda fanda nutqning ayol yoki erkakka tegishli ekanligiga ko'ra farqlanishi o'z isbotini topdi: "Xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri ular nutqida his-hayajon holatlarining tez yuzaga chiqishidir. Bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayol nutqida o'z fikrni ma'qullashga moyillik nisbatan ustunroq bo'ladi. Ular belgilangan talaffuz me'yorini aksar hollarda buzib gapiradilar":

– *O'g'ling qaytsin-chi, bo'lmasa...*

*Erning bu so'ziga O'zbek oyim ortiqcha qizishadir, labi-labiga tegmay bobillab beradir:*

– *Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz. O'g'ul o'stirish bu turda bo'lmas; u tilasin-tilamasin, shartta-shartta tilaganingizcha qilingizda, qarab turaveringiz. Siz o'zingizni "shu o'g'ling" bilar degan gapingiz bilan ... (O'tkan kunlar, 71-bet).*

Bu matn shakl nuqtayi nazaridan xabar mazmuniga ega bo'lsa-da, xabar mazmuniga asoslangan faktlar tasdig'i, o'z navbatida, shikoyat akti xarakteridadir. Misolda so'zlovchi nutqida *barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz, o'g'ul o'stirish bu turda bo'lmas* kabi ifodalarni qo'llab, o'z niyatini dalillar orqali asoslab amalga oshirishni ko'zlagan. Bu ifodalar, o'z fikrini ma'qullash, suhbatdosh so'ziga quloq solmaslik, voqea-hodisaga obyektiv baho bera olmay his-hayajonga berilish ayol jinsiga xos xususiyat ekanligini ko'rsatmoqda[5,87].

*Yosh.* Nutqda nomutanosibliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillardan yana biri yosh hisoblanadi. Adresant (so'zlovchi) va adresat (tinglovchi) muloqotining yosh jihatdan farqlanishi nutqda o'ziga xoslikni yuzaga chiqaradi. Masalan, katta yoshdagi inson bilan kichik yoshdagi inson muloqot qilganda yoki tengdoshlar o'zaro kommunikatsiyaga kirishganda turli farqlanishlar – adabiy til me'yorlariga rioya qilmaslik holatlari kuzatiladi. Ayniqsa, bu holat katta va kichik yoshdagi kishilar muloqotida yaqqol ko'rinadi:

*Mayorni shubhasiz tanimadi, leytenantni esa darrov tanidi. – Sanjar, uyingda kim bor? – deb so'radi leytenant. – O'zimman. Adang, oying-chi? – Ketishgan, kurortga. – Sen ishlaysan shekilli, nimaga ishga bormading? – deb so'radi mayor uning bezbetligidan achchiqlanib. – Otpuskadaman. – Ustang Mirtillaevni qachon ko'ruvding? Zavodda u seni urg'an ekan, shu rostmi? – Durak on, – dedi u, – meni odam qilmoqchimish. Mehnat maymunni odamga aylantirganmish, mehnat qilmasa, odam qayta maymunga aylanarmish. – Xo'sh, keyin-chi? – U urdi! Shu kerakmi sizga?! – Sanjar shunday deb*

*ko'zini lo'q qilib oldi. – A ya mejdu prochem, uni urmadim. Qo'limni harom qilgim kelmadi.* (Alvido, bolalik. 62-bet)

Mazkur misolda dialekt unsuri (*ada-dada*), varvarizm (*otpuska, on, a ya mejdu prochem, durak*) qo'llanilgan. Gap bo'laklarining odatdagi tartibi buzilganligi hamda asosan to'liqsiz gaplardan foydalanilganligi ham o'ziga xos tarzda o'smir yoshlar nutqini hosil qilgan. "Qo'lni harom qilmaslik" shaklidagi ifoda esa "yomon ishga qo'l urmaslik" ma'nosini anglatib, yoshlar nutqida qo'llanuvchi o'ziga xos ifoda birligi (sleng) sifatida olinadi. Tildan foydalanuvchi har bir shaxsning nutqida fonetik sathdan to sintaktik sathga qadar til birliklarining qo'llanishida o'ziga xos vazifalari mavjud[6.89].

Chindan ham, ijtimoiy omillar til sathlari bilan doimo tizimli ravishda aloqaga kirishadi va unga ta'sir etib boradi. Natijada tabiiy ravishda til taraqqiyoti ta'minlanib boradi. Ijtimoiy omil ta'sirida yuz bergan nutqiy nomutanosibliklar adabiy til me'yoriga singib ketishi olim tomonidan juda ham tartib bilan tavsiflab berilgan. Bu esa o'z navbatida til va nutq o'zaro chambarchas bog'langan bir butunlik ekanligi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmasligi va doimo o'zaro hamkorlikda bo'lishini isbotlaydi. Ular biri ikkinchisini to'ldiradi, biri biridan kuch oladi. Kundalik muloqot jarayonida yangi tushunchani qo'llash, nutqda "yangilik" hosil bo'lishi hamda uning tilga "singib ketishi" jarayoni bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Shu tariqa til rivojlanish, taraqqiy etishda davom etadi hamda o'lik tilga aylanmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Солнцев В. М., Михальченко В. Д. Проблема языкового пространства // Языки Российской Федерации и нового зарубежья: Статус и функции. – М., 2000. – С.5-17.
2. Столнейкер Р.С. Прагматика // НЗЛ. Вып. XVI. – М., 1985. – С.419-438.
3. Серебrenникова Б.А. Как происходит отражение картины мира в языке // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. М.: Наука, 1988. – С. 87-107.
4. Скворцов Л. И. Об оценках языка молодежи // Вопросы культуры речи. – М., 1964. – С.23-27.
5. Shibata T. On some problems in Japanese sociolinguistics: Reflection and prospect // Language in Japanese society. – Tokyo, 1975. – P.159-173.
6. Хомяков А.С. [Всемирная задача России](#) / Составление и комментарии. – М.: Институт русской цивилизации, благословение, 2011. – С.784.